



Elektron tijoratda tovar va xizmatlar uchun to'lovni kechiktirish shartlari

Muhammadiyeva Sevinch Nurbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi

muhammadiyevasevinch051@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda yangi sohalardan biri bo'lgan elektron tijoratda tovarlar uchun to'lovlarni qanday holatlarda kechiktirish mumkin ekanligi, shuningdek kechiktirish haqida ogohlantirilmagan holatlarda ularga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik asoslari keltirib o'tilgan. Maqolada to'lovlarni kechikishini tomonlarga ta'sir etadigan foyda va ziyonlari keltirib o'tilgan. Smart kontraktlar haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bularga qo'shimcha qilgan holatda xorij tajribasidan ham foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Elektron tijorat, tovarlar, to'lov, blokcheyn texnologiyasi, smart kontrakt, prinsiplar, xorij tajribasi, xavfsizlik, javobgarlik asoslari.

Bugungi kunda ko'p jamoat joylarida onlayn tovarlar va xizmatlar reklamalariga ko'zimiz tushadi. Hozirgi kunda elektron tijorat dunyosida tovarlar va xizmatlarni xarid qilish jarayoni tobora kengayib bormoqda. Bu kabilar tom ma'noda og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qilayotganligi, vaqtimizni tejayotganligi shubhasiz. Zamonaviy elektron tijorat tarixini kuzatish uchun kompyuterlarning rivojlanishiga qaytamiz. 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshi (Smit, K.T. 2008). Smithsonian jurnaliga ko'ra (2015), dunyodagi birinchi haqiqiy elektron tijorat bitimi amalga oshirildi. Net Market asoschisi



Dan Kohn diskini sotganida Stingning Filadelfiyadagi do'stiga "O'nta chaqiruvchining ertaklari" ni jo'natish uchun 12,48 dollar to'lagan va "ishlatilgan" kredit karta raqamini xavfsiz yuborish uchun ma'lumotlarni shifrlash dasturi asosida amalga oshirilgan.¹ Elektron tijoratda tovar va xizmatlar cheksiz, to'lovini to'laysiz va xizmatdan foydalanasiz yoki tovarga ega bo'lasiz. Mijozlar uchun qulaylik yaratish va sotuvchilarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida to'lovlarni kechiktirish imkoniyati joriy etilmoqda. Lekin, har doim ham to'lovlar o'z vaqtida to'lanmasligi, xizmatlar o'z vaqtida bajarilmasligi mumkin. Ushbu yozma ishda elektron tijoratda tovar xizmatlar uchun to'lovlarni kechiktirish shartlarini shuningdek, ularning afzalliklari va muammolarini, bu sohadagi chet el tajribasini ko'rib chiqamiz. Bu sohaga aloqador bo'lgan qonunchilik hujjatlari bilan tanishamiz va muhokama qilamiz.

To'lovlarni kechiktirishning mohiyati bu mijoz tovarga ega bo'lishi yoki xizmatdan foydalangani uchun to'lovlarni belgilab qo'yilgan muddatdan keyin to'lash imkoniyati hisoblanadi. Shuningdek, bu shartlar xaridor va sotuvchi o'rtasidagi kelishuv asosida amalga oshiriladi. Aks holda bu ma'lum bir javobgarlikka olib kelishi mumkin.

Xo'sh, to'lovlarni kechikishiga qanday omillar sabab boladi? Demak quyidagilar:

To'lovning kechikishiga sabab bo'lgan omillar

Texnik muammolar, misol uchun internet aloqasining uzilishi yoki serverlarning buzilishi va boshqa shunga o'xshagan to'lovni amalga oshirmoqchi bo'lgan shaxsning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan shu kabi hodisalar kiradi. Bular o'z navbatida to'lovning o'z vaqtida to'lanishini ortga surishi mumkin bo'ladi.

¹ Olumekor M., & Polbitsyn S.N. (2022). A REVIEW OF THE DEVELOPMENT OF ELECTRONIC COMMERCE IN RUSSIA AND ITS IMPLICATIONS FOR SMALL BUSINESSES. Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Экономика и менеджмент, 16 (1), 143-148.



Bank va moliya muassasalarining o'z xizmatlarini amalga oshirishda ba'zi bir muammolarga uchrashi va natijada to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmasdan qolishi mumkin.

Xato ma'lumotlar kiritilishi oqibatida. Mijozlar ko'p holatlarda to'lovni amalga oshirayotgan joyning ma'lumotlarini noto'g'ri kiritib qo'yishi natijasida to'lovlar boshqa hisob raqamga o'tib ketishi mumkin. Bu ham to'lovni kechikishini asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Xavfsizlik tekshiruvi. Ayrim pul bilan bog'liq operatsiyalarni o'tkazish qo'shimcha tekshiruvlarni talab qilishi mumkin. Bu ham to'lovning kechikishiga olib keladi.

To'lovni kechiktirish haqida sotuvchini xaridor ogohlantirganidan so'ng, quyidagi asosiy shartlar asosida kelishiladi. Bu shartlarda har ikkala tomonning ham o'zaro huquq va majburiyatlari bor. Demak, bular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, to'lovni to'lay olmaslik sababi va asosi keltirilishi kerak, ya'ni to'lov kechiktirilishi to'g'risida oldindan kelishuv bo'lishi kerakligi. Bunda xaridor belgilangan muddat ichida sotuvchini ogohlantirishi kerak. To'lovni amalga oshirishni kechiktirish asoslari bilan birgalikda. Asoslar jiddiy tusda bo'lib, amalda uni hal qilishning muqobil variantlari bo'lmasligi zarur. Ya'ni eng oxirgi yo'l bu to'lovni kechiktirib turish bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, xaridor sotuvchini ogohlantirish usullari turlicha bo'lishi mumkin bo'lib, xabardor qilish usuli email orqali yoki SMS va boshqa shunga o'xshash, sotuvchi xabar topishi mumkin bo'lgan boshqa vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Lekin, har qanday holatda ham sotuvchi to'lovni kechikishi haqida ogohlantirilishi kerak.

Uchinchidan, bu asosan sotuvchining majburiyati bo'lib, bu haqida kelishuv shartlarida keltirib o'tilgan bo'lishi kerak. Ya'ni, to'lovning kechikishi uchun qonuniy ravishda belgilangan foyda yoki jarima stavkalari mavjud bo'lishi zarur. Chunki, xaridor



bilishi kerak, agar to'lovni amalga oshirish belgilangan muddatdan o'tib ketgan bo'lsa, unga nisbatan qanday choralar ko'rilishini. Shu bilan birga, korxona yig'ish uchun aniq tizimga muhtoj kontragentlardan to'lovlar va kechiktirilgan to'lov uchun jarima eng samarali vosita bo'lishi mumkin. Kompaniya mijozlarining to'lov intizomi past, bu uning samaradorligini pasaytiradi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra konsalting kompaniyasi, kechiktirilgan to'lov uchun tavsiya etilgan o'rtacha jarima stavkasi 7% bo'lishi kerak, bu mijozlar uchun o'z vaqtida to'lash uchun yetarli rag'bat yaratishi mumkin. Agar mijoz o'z vaqtida to'lay olmasa, jarima kechiktirilgan to'lovlar tufayli kompaniyaning yo'qotishlarini qoplaydi.²

To'rtinchidan, tovar va xizmat shartlari. Agar xaridorga xizmat ko'rsatilmagan yoki xaridor hali tovarni olmagan bo'lsa, to'lov yoki xizmatlarni yetkazib berish vaqti kechiktirilgan to'lovga bog'liq bo'lishi mumkin, ya'ni bunda sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi to'lov qilinmaguncha tovar va xizmatni bermasdan turishi mumkin. Xattoki tadbirkor, kechikkan to'lovlar uchun tovarni yetkazib berishni to'xtatib turishi yoki umuman to'xtatib qo'yishi ham mumkin bo'ladi.

Har bir narsaning yaxshi va yomon tomoni bo'lgani kabi, to'lovlarni kechikishining ham shunday tomonlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

Afzalliklari:

Mijozlar uchun qulaylik: bunda to'lovni kechiktirish, xaridorlarga moliyaviy yukni kamaytirishga yordam beradi. Bu sababli, xaridorlar uchun xarid qilish osonlashadi.

² Mindlin Yury B., Novikov Mikhail V., & Yakovleva Olga A. (2022). ASSESSMENT AND WAYS TO INCREASE THE RATE OF RETURN IN THE RUSSIAN MEDIUM-SIZED AGRICULTURAL ENTERPRISES. Крестьяноведение, 7 (4), 6-19.



Sotuvchilar uchun raqobat ustunligi. Bu afzallik asosan sotuvchilar foydasiga ishlaydi, chunki bu shartlar sotuvchilarga o'z mahsulotlarini raqobatbardosh narxda taklif qilish imkonini beradi.

Muammolarga keladigan bo'lsak, quyidagi ayrim jiddiy muammolar bor bo'lib, ular quyidagilar:

Qonuniy muammolar: to'lovlarni kechiktirish shartlarining buzilishi, sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida nizolarga olib kelishi mumkin. Natijada, tadbirkor o'z xaridoridan ayriladi, xaridor esa endilikda boshqa ishonchliroq tadbirkorlik subyektini topishga majbur bo'ladi.

Moliya risklari. sotuvchilar uchun kechikkan to'lovlar moliyaviy muammolar tug'dirishi mumkin. Bu esa keyinchalik pul tanqisligi moliyaviy muammolarga olib kelishi va bu tadbirkorlik subyektini faoliyatiga ziyon yetkazishi mumkin.

Elektron tijoratda tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni kechiktirish shartlari, mijozlar va sotuvchilar o'rtasida o'zaro manfaatli kelishuvlarni shakllantiradi. Bu jarayonni samarali boshqarish, qonuniy va moliyaviy risklarni minimallashtirishga yordam beradi. Shartlarni aniq belgilash va mijozlarni xabardor qilish, elektron tijoratda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun sezilarli ahamiyatga ega.

Results- natijalar

Tovarni olgan yoki ma'lum bir xizmatdan foydalangan iste'molchilar haq to'lashlari, ya'ni tovar va xizmatlar uchun ushbu qonunning tegishli moddasiga muvofiq to'lovni amalga oshirishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasining Elektron tijorat to'g'risida qonunining 22-moddasiga asosan, quyidagi usullar orqali elektron tijoratda to'lovlarni amalga oshirish mumkin, ya'ni naqd pul mablag'lari bilan — naqd pul mablag'lari to'lov vositasi tarzida virtual terminallar



(“E-POS”) orqali qabul qilinganligini tasdiqlaydigan hujjatlarni hamda sotuvchi va sotilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘risidagi axborotni o‘zida aks ettiradigan hujjatlarni xaridorga taqdim etish orqali;

pul mablag‘larini bank hisobvarag‘idan o‘tkazish orqali — pul mablag‘larini bank hisobvarag‘idan (shu jumladan bank kartalarining hisobvarag‘idan) o‘tkazish vositasida, shu jumladan shaxsiy kabinet (masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi) orqali yoki to‘lov tashkilotining tizimi orqali o‘tkazish vositasida;

elektron pullardan foydalangan holda — elektron pullar tizimida ochilgan elektron hamyondagi pul mablag‘larini o‘tkazish vositasida.³

To‘lovlarni kechiktirish xorijiy investorlar uchun katta zararga, shu jumladan foyda yo‘qolishiga olib keladi. Bundan tashqari, yangi qonun, avvalgisidan farqli o‘laroq, kompensatsiyani nazarda tutmagan hollar bundan mustasno.⁴

Agar ushbu shartlar amalga oshirilmasa, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli moddalariga muvofiq majburiyatlarni bajarmaslik hisoblanadi. Chunki, tovar xarid qilayotganimizda yoki xizmatdan foydalanayotganimizda biz ma’lum bir huquq va majburiyatlarga ega bo‘lamiz. Ya’ni, tadbirkorlik subyekti bizga tovarni yetkazish yoki sotish xuddi shuningdek, xizmat ko‘rsatish majburiyatini olyapti va qilgan xizmati uchun belgilangan miqdorda haq olish huquqiga ega bo‘ladi. Xaridorlar tovarni yoki xizmatni olish bilan bir vaqtda bular uchun belgilangan to‘lovni amalga oshirishimiz kerak. Bu biz uchun majburiyat hisoblanadi. Agar biz o‘z majburiyatlarimizni vaqtida yoki umuman bajarmasak, Fuqarolik kodeksi 237-modda. Majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo‘l qo‘yilmasligi moddasida quyidagi asoslar keltirib o‘tilgan. Majburiyatni

³ “O‘zbekiston Respublikasining Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son) <https://lex.uz/docs/-6213382>

⁴ Nilov Konstantin N. (2011). Legal guarantees for international investment according to the legislation of the Russian Federation. Baltic Region, 3 (3), 5-10.



bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.⁵

Ya'ni bunda yuqorida aytib o'tganimizdek, xaridor va tadbirkorlik subyekti o'rtasida to'lovlarni kechiktirish shartlari batafsil kelishib olinadi. Xaridor to'lovni to'lashni o'zboshimchalik bilan bir taraflama kechiktirsa, bu holat fuqarolik kodeksining 237-moddasiga⁶ muvofiq, majburiyatni bajarishdan bir taraflama bosh tortish hisoblanadi.

Shuningdek, Elektron tijoratda tovar va xizmatlar uchun to'lovni kechiktirish, Fuqarolik kodeksining 238-moddasi, ya'ni Majburiyatning kelishilgan va maqbul usulda bajarilishi. Bu moddada yuqorida keltirib o'tgan asoslarimiz, ya'ni sotuvchi va xaridorlar o'rtasida kelishuv asosida to'lovni kechiktirish sabablari, shuningdek to'lovni amalga oshirish shartlari va boshqa shu kabi asosiy kelishuvlar ikkala taraf o'rtasida kelishib olinadi. Shuningdek, ushbu moddaga asoslangan holatda to'lovni amalga oshirish majburiyatlari kelishiladi, maqbul usul va vositalar yordamida hal qilinadi.⁷

Fuqarolik kodeksi 242-modda. Majburiyatni bajarish muddatiga muvofiq, har ikkala taraf kechiktirilgan to'lovni to'lash muddatini kelishib olishadi. Va shu muddatga qadar to'lovni amalga oshirish choralari ko'rilishi kerak. Shu va shunga o'xshash moddalar orqali to'lovlarni kechiktirish tartibga solinadi.⁸

Shuningdek, bu masala bo'yicha xorij tajribasi, xususan Yevropa Ittifoqi tajribasiga qaraydigan bo'lsak, unda Yevropa Ittifoqi qonunchiligi 14-moddasiga muvofiq, Yevropa Ittifoqi tovarlar va xizmatlarning erkin harakatlanishini kafolatlaydi. Shu munosabat bilan tadbirkorlar ichki bozorda o'z biznesini yuritishi, debitorlik qarzlarini o'z vaqtida undira

⁵ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son) <http://lex.uz/docs/-111189>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son) <http://lex.uz/docs/-111189>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son) <http://lex.uz/docs/-111189>

⁸ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son) <http://lex.uz/docs/-111189>



olishi zarur. Shu sababli, ushbu kechiktirilgan to'lov ichki bozorning to'g'ri ishlashiga to'sqinlik qiladi. Tijorat operatsiyalarida kechiktirilgan to'lovlarga qarshi kurash bo'yicha Direktiv, 2000/35/ EC direktivasi erkinlik, xavfsizlik va adolat sohasini saqlash va rivojlantirish kontekstida joylashtirilgan. Ushbu Direktiv barcha tijorat operatsiyalarini xususiy yoki davlat tadbirkorlari o'rtasida yoki tadbirkorlar va davlat organlari o'rtasida amalga oshirilganligidan qat'iy nazar tartibga soladi, chunki ular biznesga to'lovlarning katta hajmini amalga oshiradilar. Shuning uchun u asosiy pudratchilar va ularning yetkazib beruvchilari va subpudratchilari o'rtasidagi barcha tijorat operatsiyalarini tartibga solishi kerak. Biroq, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kechiktirilgan to'lovning atigi 23 foizi qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklari bilan bog'liq. Kechiktirilgan to'lovning eng ko'p uchraydigan sababi (35%) va ma'muriy samarasizlik (17%) sifatida ko'rsatilgan transchegaraviy kechiktirilgan to'lov bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan yuqori darajadagi kechiktirilgan to'lovning 52 foizini qisqartirish mumkin. Yuqorida keltirilgan raqamlar a'zo davlatlarda farq qiladi. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi tijorat operatsiyalarida ko'plab to'lovlar shartnomada kelishilgan yoki umumiy tijorat shartlarida belgilangan muddatdan kechroq amalga oshiriladi. Tovarlar yetkazib berilgan yoki bajarilgan xizmatlarga qaramasdan, ko'plab tegishli hisob-fakturalar belgilangan muddatdan keyin to'lanadi. Bunday kechiktirilgan to'lov likvidlikka salbiy ta'sir qiladi va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy boshqaruvini qiyinlashtiradi. Bu shuningdek, kreditor to'lovni kechiktirganligi sababli tashqi moliyalashtirishga muhtoj bo'lganda, ularning raqobatbardoshligi va rentabelligiga ta'sir qiladi. Bunday salbiy ta'sirlar xavfi, moliyalashtirishga kirish qiyinroq bo'lgan iqtisodiy tanazzul davrida kuchli ortadi. Shu sababli, to'lovni kechiktirish ichki bozorning to'g'ri ishlashiga haqiqiy to'siq bo'lib, Yevropa Komissiyasini chora ko'rishga undashi kerak edi. Yevropa Komissiyasining Korxona va sanoat direksiyasi so'zlari bilan aytganda: "Kompaniyalar to'lovni kutib bankrot bo'lishadi. Ishlar yo'qoladi. Orzular o'ladi. Yevropa Ittifoqida yetkazib beruvchilarga to'lovlarni kechiktirish odatiy holdir. Bu kam harajat



maqbul deb hisoblanadi. Ammo bu katta zarar keltiradi. Har yili yuz minglab yevropalik korxonalar kechiktirilgan to'lovlarni kutib yopiladi. Kichik va o'rta korxonalar, ayniqsa, kechiktirilgan to'lovlarga duchor bo'lishadi, chegaralar orqali sotadigan korxonalar ayniqsa zaifdir. Kechiktirilgan to'lov madaniyati o'zgarishi kerak.⁹

Belgilangan muddatdan keyin tugaydigan to'lovlar kechiktirilgan hisoblanadi. Ushbu to'lovlar etkazib beruvchining iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi (Preamble, № 17).¹⁰

Elektron tijorat to'g'risidagi namunaviy qonunning tamoyillari quyidagilardan iborat:

Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsipi - har qanday hujjat faqat elektron shaklda bo'lganligi sababli uning qonuniy kuchini, ta'sirini va ijro etilishini inkor etmasligini ta'minlaydi.

Texnologik betaraflik prinsipi - u qo'llaniladigan texnologiyaga nisbatan neytral bo'lgan qoidalarni qabul qilishni talab qiladi. Bu texnologiyaning rivojlanishi bilan xalqaro valyuta operatsiyalari tezligini yanada oshiradi.

Funksional ekvivalentlik prinsipi - Funksional ekvivalentlik, nomidan ko'rinib turibdiki, xizmat ko'rsatish jabhasida hamma uchun teng munosabatdir. Bu shuni anglatadiki, ham an'anaviy, ham texnologik operatsiyalar, ya'ni qog'ozda va elektronda ularning haqiqiyliги yoki samaradorligi bo'yicha e'tiroz bildirish mumkin emas.¹¹

Shuningdek, to'lovni amalga oshirish shart bo'lgan vaziyatlar ham mavjud bo'lib, agar siz to'lovni amalga oshirmasangiz belgilangan shartnomani ololmasligingiz mumkin. Bunga misol sifatida smart-kontraktni keltirishimiz mumkin.

⁹ Ene, C. (2015). The late payment under the EU legislation. Tribuna Juridica, 5(10), 291-300

¹⁰ Andrej Mićović (2021). PROTECTION OF SUPPLIERS OF AGRICULTURAL AND FOOD PRODUCTS FROM UNFAIR TRADING PRACTICE. Экономика пољопривреде, LXVIII (4), 1131-1145. doi: 10.5937/ekoPolj2104131M

¹¹ <https://blog.ipleaders.in/model-law-on-electronic-commerce/>



Smart-kontrakt blokcheyn texnologiyasi asosida ishlaydi. Blokcheyn - bu barcha ma'lumotlar saqlanadigan va tasdiqlanadigan tarqatilgan tizimdir. Shartnoma bir marta yozib qo'yilgach, u o'zgartirib bo'lmaydigan holatda blokcheynda saqlanadi. Dastur shartnoma shartlarini tamoyili bo'yicha ishlaydi. Smart-kontrakt (raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma),¹²

Misol uchun, siz avtomobil sotib olmoqchisiz. Smart-kontrakt shunday tuzilishi mumkin:

1. Xaridor mablag'ni o'tkazadi.
2. Smart-kontrakt to'lovni tasdiqlaydi va avtomatik ravishda mashinani xaridor nomiga o'tkazadi.

Smart-kontraktlarning afzalliklari

Smart-kontraktlar an'anaviy shartnomalarga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega:

1. **Xavfsizlik** — Blokcheynning asosiy xususiyati ma'lumotlarning o'zgartirilmasligi va himoyalanganligi. Shartlar bir marta yozilgach, ularni hech kim o'zgartira olmaydi.
2. **Avtomatlashtirish** — O'z vaqtida bajariladigan harakatlar inson aralashuvisiz amalga oshadi. Bu hujjatlar tayyorlash yoki vositachilar orqali ishlashdan ko'ra tezroq.
3. **Tejamkorlik** — Oraliq vositachilar kerak bo'lmaganligi sababli moliyaviy xarajatlar kamayadi.
4. **Shaffoflik** — Smart-kontraktning barcha jarayonlari blokcheynda saqlanadi, bu esa ishtirokchilarga shaffoflikni ta'minlaydi.

Smart-kontraktlar qayerda ishlatiladi?

Smart-kontraktlar ko'plab sohalarda ishlatiladi va ularni samaradorligini oshiradi:

¹² Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.09.2024-y., 06/24/140/0728-son) <https://lex.uz/docs/-3806053>



- **Moliyaviy xizmatlar:** Bank xizmatlari, kreditlar, moliyaviy bitimlar — barcha jarayonlar avtomatik ravishda bajariladi.
- **Ko'chmas mulk savdosi:** Mulknı sotish yoki ijaraga berish, mulk huquqlarini o'zgartirish jarayonlari vositachilarsiz amalga oshiriladi.
- **Logistika:** Tovarları yetkazib berish va ularni qabul qilish jarayonlari smart-kontraktlar orqali kuzatilib, avtomatik amalga oshiriladi.
- **Sug'urta:** Sug'urta hodisasi yuz berganda to'lovlar avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Masalan, sug'urta hodisasi haqidagi ma'lumot tasdiqlangach, to'lov smart-kontrakt tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

To'lovlarni kechikishi holatlarini oldini olish muhim bo'lib, quyidagi samarali yechimlarni taklif qilish mumkin.

Avtomatlashtirilgan tizimlar. Ya'ni bunda to'lov jarayonini avtomatlashtirish, masalan, to'lovlarni rejalashtirish va avtomatik ravishda jo'natish, to'lov kechikishlarini kamaytiradi. Bu yuqorida keltirib o'tilgan muammolarning oldini olishi va xaridorning mijozga nisbatan ishonchini tom ma'noda saqlab qolishi mumkin.

Monitoring tizimlari: To'lovlar ustidan real vaqt monitoringini ta'minlash, muammolarni erta aniqlash va bartaraf etishga imkon beradi. Mijozlarni rag'batlantirish: Mijozlarga vaqtida to'lov qilish uchun chegirmalar yoki bonuslar taklif qilish, ularni tezroq to'lov amalga oshirishga undaydi. Bu ham samarali usullardan bittasi hisoblanadi.¹³

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni kechikishini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lib, buni quyidagi usullar orqali boshqarish mumkin:

¹³ <https://www.blockchaintexno.uz/news/smart-kontrakt-nima%3F>



Xaridorlarni tajribasini yaxshilash: Mijozlar uchun qulay va tez to'lov tizimlarini yaratish. Bunga misol uchun, bir marta bosish orqali to'lovni amalga oshirish tushuniladi. Bu to'lov jarayonini osonlashtiradi va soddalashtiradi.

Maqsadli kommunikatsiya: Mijozlar bilan muntazam ravishda aloqa o'rnatish va to'lov jarayonidagi har qanday o'zgarishlar haqida ularni xabardor qilib turish, kechikishlarning oldini olishga yordam beradi. Bu o'z navbatida to'lovlarni kechikishini oldini olishga yordam beradi.

Shuningdek, garchi elektron tijorat rivojlanishi kerak bo'sa ham, Elektron tijoratga mijozlarni jalb qilishda, kompaniyalar ishonchsizlik muammosiga duch kelishi mumkin. Ko'pchilik mijozlar, ayniqsa keksalar, apriori elektron formatdagi operatsiyalarga ishonmaydilar. Buning sababi ishonchsizlik - bu "qog'oz" talab qilishning uzoq muddatli odatidir.¹⁴

Conclusion-Xulosa

Elektron tijoratda tovar va xizmatlar uchun to'lovning kechikishi, bir qancha omillar va sabablarga bog'liq. Biroq, samarali boshqarish usullari va yechimlar orqali bu jarayonni yanada soddalashtirish va mijozlar uchun qulayligini oshirish mumkin. Mijozlar bilan yaxshi aloqani o'rnatish va ularni xabardor qilish, shuningdek, texnik va xavfsizlik muammolarini hal etishga qaratilgan choralar, to'lov jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

¹⁴ Nikishin Alexander Fedorovich, & Pankina Tatiana Viktorovna (2015). The problem of involvement of clients in electronic commerce. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, 2 (3-4), 15-17.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olumekor M & Polbitsyn S.N (2022) A REVIEW OF THE DEVELOPMENT OF ELECTRONIC COMMERCE IN RUSSIA AND ITS IMPLICATIONS FOR SMALL BUSINESSES. Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Экономика и менеджмент, 16 (1), 143-148.
2. “O‘zbekiston Respublikasining Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y 03/22/792/0870-son) <https://lex.uz/docs/-6213382>
3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son) <http://lex.uz//docs/-111189>
4. Nilov Konstantin N. (2011). Legal guarantees for international investment according to the legislation of the Russian Federation. Baltic Region, 3 (3), 5-10.
5. Ene,C. (2015). The late payment under the EU legislation. Tribuna Juridica, 5(10), 291-300
6. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.09.2024-y., 06/24/140/0728-son) <https://lex.uz/docs/-3806053>
7. <https://www.blockchaintexno.uz/news/smart-kontrakt-nima%3F>
8. Nikishin Alexander Fedorovich, & Pankina Tatiana Viktorovna (2015). The problem of involvement of clients in electronic commerce. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, 2 (3-4), 15-17.
9. Mindlin Yury B., Novikov Mikhail V., & Yakovleva Olga A. (2022). ASSESSMENT AND WAYS TO INCREASE THE RATE OF RETURN IN THE RUSSIAN MEDIUM-SIZED AGRICULTURAL ENTERPRISES. Крестьяноведение, 7 (4), 6-19.
10. Andrej Mićović (2021). PROTECTION OF SUPPLIERS OF AGRICULTURAL AND FOOD PRODUCTS FROM UNFAIR TRADING PRACTICE. Экономика польопривреде, LXVIII (4), 1131-1145. doi: 10.5937/ekoPolj2104131M
11. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son) <http://lex.uz//docs/-111189>
12. <https://blog.ipleaders.in/model-law-on-electronic-commerce/>